

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA OZIQ-OVQAT SANOATI VA BOJXONA TIZIMI FAOLIYATINI BOSHQARISH

Mirzayev Abdullajon Topilovich

Fargʻona davlat universiteti professori, i.f.d. (DSc)

abdubehr@mail.ru

Pardayev Tulkin Nasirovich

Bojxona qoʻmitasi Bojxona instituti professori, i.f.n.

tulkinpardayev65@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda oziq-ovqat sanoati va bojxona tizimi faoliyatini boshqarishning ahamiyati va roli tahlil qilingan. Oziq-ovqat mahsulotlari sifatini kafolatlash va ularning xavfsizligini ta'minlash jarayonida bojxona nazorati va sanoat standartlarini joriy etish muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada eksport-import operatsiyalarida yuzaga keladigan muammolar, bojxona tartib-taomillarini takomillashtirish va oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish orqali oziq-ovqat xavfsizligini oshirish masalalari yoritilgan. Natijalarda bojxona va oziq-ovqat sanoati o'rtasidagi samarali hamkorlik oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy vositalaridan biri ekani ta'kidlangan.

Kalit soʻzlar: oziq-ovqat xavfsizligi, oziq-ovqat sanoati, bojxona tizimi, boshqaruv, eksport-import, standartlar, bojxona nazorati, sifat nazorati, logistika, sanitariya-me'yoriy hujjatlar.

УПРАВЛЕНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ И ТАМОЖЕННОЙ СИСТЕМЫ В ОБЕСПЕЧЕНИИ БЕЗОПАСНОСТИ ПИЩЕВЫХ ПРОДУКТОВ

Мирзаев Абдуллажон Топилович

Профессор Ферганского государственного университета, д.э.н (DSc)

abdubehr@mail.ru

Пардаев Тулкин Насирович

Профессор Таможенного института таможенного комитета, к.э.н

tulkinpardayev65@mail.ru

Аннотация: В статье проанализировано значение и роль управления деятельностью пищевой промышленности и таможенной системы в обеспечении продовольственной безопасности. Важным фактором в процессе обеспечения качества пищевых продуктов и обеспечения их безопасности считается введение таможенного контроля и отраслевых стандартов. В статье также освещаются проблемы, возникающие при экспортно-импортных операциях, вопросы повышения безопасности пищевых продуктов за счет улучшения таможенных процедур и развития пищевой промышленности. В результатах подчеркивается, что эффективное сотрудничество между таможней и пищевой промышленностью является одним из основных инструментов обеспечения безопасности пищевых продуктов.

Ключевые слова: *безопасность пищевых продуктов, пищевая промышленность, таможенная система, менеджмент, экспорт-импорт, стандарты, таможенный контроль, контроль качества, логистика, санитарные нормы.*

MANAGEMENT OF THE ACTIVITIES OF THE FOOD INDUSTRY AND THE CUSTOMS SYSTEM IN ENSURING FOOD SECURITY

Mirzayev Abdullajon Topilovich

Professor of Fergana State University, (DSc)

abdubehr@mail.ru

Pardayev Tulkin Nasirovich

Professor of Customs Institute of Customs Committee, (c.e.s)

tulkinpardayev65@mail.ru

Abstract: The article analyzes the importance and role of managing the activities of the food industry and the customs system in ensuring food security. In the process of guaranteeing the quality of food products and ensuring their safety, customs control and the introduction of industrial standards are considered as an important factor. The article also covers problems arising in export-import operations, improving customs procedures and increasing food security through the development of the food industry. The results state that effective cooperation between Customs and the food industry is one of the main means of ensuring food security.

Keywords: *food safety, food industry, customs system, management, export-import, standards, customs control, quality control, logistics, sanitary and regulatory documents.*

KIRISH

Bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi va aholi salomatligini himoya qilishdagi eng muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Jahon bozorida oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning ortib borishi, global iqlim o'zgarishlari, logistika zanjirlaridagi uzilishlar va boshqa xavf-xatarlar oziq-ovqat xavfsizligi masalasini dolzarb qilib qo'ymoqda. Shu nuqtai nazardan, oziq-ovqat sanoatini barqaror rivojlantirish va uning eksport-import jarayonlarini samarali boshqarish orqali milliy oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash alohida e'tibor talab etadi. Ayniqsa, bojxona tizimi faoliyatini takomillashtirish, xalqaro standartlarga muvofiq ravishda sanitariya va fitosanitariya nazoratini kuchaytirish, sifatsiz va xavfli mahsulotlarning ichki bozorga kirib kelishini oldini olishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada oziq-ovqat sanoati va bojxona tizimi o'rtasidagi o'zaro aloqalarni kuchaytirish, ushbu tizimlarni samarali boshqarish orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalari chuqur tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Oziq-ovqat xavfsizligi, oziq-ovqat sanoati va bojxona tizimi faoliyatining o'zaro bog'liqligi bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar va amaliy tadqiqotlar olib borilgan. Jahon banki, BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti kabi xalqaro tashkilotlarning hisobotlarida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda samarali boshqaruv tizimlari va xalqaro savdo me'yorlariga rioya qilish muhimligi ta'kidlanadi. Xususan, D.North va M.Porter kabi tadqiqotchilar oziq-ovqat sanoatida raqobatbardoshlik va logistika zanjirlarining samaradorligi oziq-ovqat xavfsizligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ilmiy asoslab berganlar.

O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va bojxona tizimi islohotlari bo'yicha qator ilmiy ishlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar yaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligi to'g'risida"gi Qonuni, "Bojxona kodeksi" va Prezident qarorlarida mazkur tizimlar o'rtasidagi hamkorlik va boshqaruv masalalariga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, mahalliy tadqiqotchilar - M.Yo'ldoshev, A.Mahmudov va B.Toshpo'latovlarning ishlarida oziq-ovqat sanoatida sifat va xavfsizlik nazoratini kuchaytirish, bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish yo'llari yoritilgan.

Fikrimizcha, oziq-ovqat sanoati korxonalari va bojxona tizimini boshqarish jarayoniga omillar ta'sirini baholash, oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatiga mavsumiylik omili ta'sirini baholash va oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari soha faoliyatining rivojlanish davrini qisqartiradi hamda iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari ortadi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda oziq-ovqat sanoati va bojxona tizimi faoliyatini boshqarishning o'rni va ahamiyatini kompleks yondashuv asosida o'rganish maqsad qilingan. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli tahlil, statistik tahlil va taqqoslov tahlil usullaridan foydalanildi. Oziq-ovqat sanoati va bojxona tizimining oziq-ovqat xavfsizligi tizimidagi o'zaro bog'liqligini ochib berish uchun tizimli yondashuv qo'llanildi. Bu yondashuv orqali sanoat va bojxona faoliyatining o'zaro ta'siri, boshqaruv mexanizmlarining samaradorligi hamda oziq-ovqat xavfsizligi tamoyillariga mosligi baholandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR


O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-mart kungi 147-son "Oziq-ovqat xavfsizligi va ichki bozorda narxlar barqarorligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga asosan soha korxonalari oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash infratuzilmasi zaruriyati va uni yanada takomillashtirish mexanizmini ishlab chiqish ish samaradorligini oshiradi. Ushbu infratuzilma xom ashyo yetkazib beruvchilar, tashish va saqlash xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlarni o'z ichiga oladi.

Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni va ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi kundan kunga ortib bormoqda. Bugungi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning globallashuv jarayonida tarmoq va sohalarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni hamda soha faoliyatlari rivojlanishiga ta'sir etuvchi turli ko'rinishdagi xavfsizlik masalalarini hisobga olgan holda tadqiq etish muhim hisoblanadi. Shu bois tadqiqotni amalga oshirish jarayonida jahon mamlakatlarida foydalanilayotgan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlovchi takomillashtirilgan model va mexanizmlardan mamlakatimizda ham samarali foydalanish zarurati tug'ilmoqda [1] (1-rasm).

Ushbu mexanizm asosiy oziq-ovqat sanoati korxonalarining barcha bo'g'inlarining nazoratni amalga oshirish bilan bir qatorda qonunchilik tomonidan belgilab qo'yilgan me'yoriy xujjatlarga amal qilinishini ta'minlaydi:

- qonun xujjatlarida belgilangan va tanishtirilgan oziq-ovqat xavfsizligiga so'zsiz amal qilish hamda uning sifat darajasi;
- oziq-ovqat mahsulotlarini tayyotlash uchun qo'yilgan qat'iy talablar va ularga rioya qilish;
- belgilab berilgan qonunlar va ularga qanchalik rioya qilishning korxona darajasidagi va holati;
- resurslarning mavsumiyligi va uning oziq-ovqat sanoati korxonalari uchun riski bo'yicha ma'lumot;

- respublika miqyosida sanitariya-epidemiologik vaziyat hamda unga qarab moslashish bo'yicha ma'lumot;
- amalda faoliyat ko'rsatadigan xom ashyo markazlari va ularning assortimenti va boshqalar [2].



1-rasm. Oziq-ovqat sanoati korxonalarining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash mexanizmi¹

¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Oziq-ovqat xavfsizligi ilmiy tadqiqot markazlari, mahsulotlarning sanitar gigienik jihatdan alohida statistik yo'nalishi va uning xavfsizligiga oid iste'molchilarga kerakli axborotlarni yetkazish, oziq-ovqat sohasida doimiy tadqiqotlarni amalga oshirish va sohaga doir statistik ma'lumotlarni tahlil qilishda quyidagi asosiy tizimlarga e'tibor qaratish lozim:

- oziq-ovqat sanoatini me'yoriy-texnik jihatdan qo'llab-quvvatlash;
- oziq-ovqat sanoatining hozirgi holati to'g'risidagi ma'lumotlar;
- oziq-ovqat mahsulotlari savdosiga oid real ma'lumotlari;
- mamlakatimizda va xorijda oziq-ovqatga doir bo'lgan xavfsizlik tizimi va uning sifati to'g'risida ma'lumot;
- xom ashyo hamda ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlariga aloqador bozordagi vaziyat va xavfsizlik ma'lumotlari;
- oziq-ovqatdan zaxarlanish yoki u bilan bog'liq yuqimli kasalliklarning tarqalishi to'g'risidagi shoshilinch tahlil;
- oziq-ovqat sanoatining holati, uning muammolari va mumkin bo'lgan yechimlari to'g'risida ma'lumot va boshqalar.

Oziq-ovqat xavfsizligini domiy ta'minlash tizimining bosqichlarining ketma-ketligi soha faoliyati korxonalarida xavfsiz mahsulot ishlab chiqarish va uni doimiy nazorat qilinishini ta'minlaydi.

Oziq-ovqat sanoati korxonasida oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish tizimini takomillashtirish orqali inson salomatligi va hayot tarzi uchun zarur ne'matlarni yetarlicha xavfsizlini kafolatlaydi [3].

Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini boshqarish tizimi maxsus tavsiflari asosida korxona boshqaruvida eng dolzarb hisoblangan nazorat punktlari va ularning to'g'ri amalga oshirilishini nazarda tutadi. Buning natijasida mavjud muammolar o'rganiladi va ularning ijobiy yechimlari izlab topiladi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash tizimi – bu aholining doimiy ravishda sifatli va yetarli miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlariga ega bo'lishini ta'minlaydigan chora-tadbirlar va siyosatlar yig'indisidir. Bu tizim oziq-ovqat ishlab chiqarish, saqlash, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlarining barqarorligini, mahsulotlarning ekologik va sanitariya-me'yorlarga muvofiqligini nazorat qiladi. Oziq-ovqat zaxiralarini boshqarish, import va eksport siyosati, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarga qo'llab-quvvatlash ko'rsatish va iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish ushbu tizimning muhim tarkibiy qismlaridir. Shu orqali mamlakatda oziq-ovqat tanqisligi va narxlarning keskin o'zgarishining oldi olinadi. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash tizimi shuningdek, favqulodda vaziyatlarda (qurg'oqchilik, tabiiy ofatlar, iqtisodiy inqiroz) oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun maxsus zaxira va dasturlarni ham o'z ichiga oladi. Tizim qashshoqlikni kamaytirish, sog'lom ovqatlanishni targ'ib qilish va aholining oziq-ovqatga barqaror kirishini ta'minlashga xizmat qiladi. Bundan

tashqari, xalqaro tashkilotlar, xususan, BMTning FAO tashkiloti ham oziq-ovqat xavfsizligi sohasida muhim tashabbus va yordamlari bilan ishtirok etadi. Har bir davlat milliy oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash orqali ijtimoiy barqarorlik va sog'lom jamiyatni shakllantirishga intiladi [4].

Tadqiqot davomida berilgan bir nechta tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatida o'z ijobiy samarasini berishi bilan birgalikda faoliyatni tashkil etishda davlat ishtirokidan foydalanib rivojlanishni belgilab bersa, boshqa tomondan, umumiy maqsad yo'lida asosiy va qo'shimcha faoliyatni birlashtirish orqali multiplikativ samaraga erishish imkonini beradi.

Global oziq-ovqat xavfsizligi indeksi - bu Britaniyaning Economist Intelligence Unit tadqiqot kompaniyasi (Britaniya The Economist jurnalining tahliliy bo'limi) tomonidan e'lon qilingan global so'rov va dunyo mamlakatlari oziq-ovqat xavfsizligi reytingi. Tadqiqot 2012-yildan beri olib borilmoqda va hozirgi vaqtda dunyoning turli mamlakatlarida oziq-ovqat xavfsizligi holatining eng to'liq ko'rsatkichlari to'plamidir.

Oziq-ovqat xavfsizligi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda 1996-yilgi jahon oziq-ovqat sammitida oziq-ovqat xavfsizligi tarifi qo'llaniladi: Oziq-ovqat xavfsizligi - bu har qanday vaqtda mamlakatdagi barcha odamlar o'zlarining ehtiyojlarini qondiradigan va oziq-ovqat uchun zarur bo'lgan yetarli va to'yimli oziq-ovqatga jismoniy, ijtimoiy va iqtisodiy kirish imkoniyatiga ega bo'lgan shartdir faol va sog'lom hayot.

Oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlash uchun sanoat korxonalari faoliyatining boshqaruv mexanizmini takomillashtirish uchun quyidagilar muhim hisoblanadi.

- bo'linmalar va mansabdor shaxslar tomonidan vazifalarni muvofiqlashtirish va ularni bajarish ketma-ketligi;

- moliyaviy-iqtisodiy faoliyat, ichki va tashqi muhit holati aks ettirilgan rivojlangan axborot tizimi;

- mehnat resurslarini boshqarish siyosatini takomillashtirish, xususan, korxona va uning ishchilari maqsadlarining birligini ta'minlash vositasi sifatida mehnat motivatsiyasi;

- sifat menejmentini joriy etish, operatsion faoliyatni ISO:9001 standartlariga muvofiq sertifikatlash;

- bozor talablariga, raqobatchilarga nisbatan joylashishni aniqlash maqsadlariga muvofiq ishlab chiqariladigan tovarlar assortimentini diversifikatsiya qilish;

- investitsion va innovatsion faoliyatni faollashtirish;

- ichki va tashqi muhitning xavf omillarini, shuningdek ularning raqobat tahdidlarining kuchayishiga ta'sirini aniqlash va tahlil qilish;

- inqiroz hodisalari ehtimolini baholash;

- boshqaruv tizimlari va ichki nazoratning realligini baholash [6].

Aholini xavfsiz oziq-ovqat bilan ta'minlash alohida ijtimoiy va siyosiy ahamiyatga ega. Odamlarning taqdiri asosiy oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz va yetarli darajada tibbiy ta'minlanish qanday yo'lga qo'yilganiga bog'liq. Aholining ovqatlanishining yomonlashishi demografik o'zgarishlarni keltirib chiqaradi, ijtimoiy va mintaqalararo keskinlikni oshiradi va davlatning ichki xavfsizligiga tahdid soladi.

Shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda bojxona tizimini boshqarish muhim ahamiyatga ega. Bojxona organlari import qilinayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining sifat va xavfsizlik talablariga muvofiqligini nazorat qilib, sifatsiz yoki xavfli mahsulotlarning ichki bozorga kirib kelishini oldini oladi. Shu bilan birga, bojxona tizimi orqali oziq-ovqat mahsulotlarining sertifikatlash jarayonlari amalga oshiriladi, bu esa iste'molchilar salomatligini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, 2025-yil 3-fevralda qabul qilingan "Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida"gi Qonun aholining oziqlik qimmatiga ega bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan xavfsiz ovqatlanishini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu qonun oziq-ovqat mahsulotlari va xomashyosini ishlab chiqarish, import qilish va tarqatish jarayonlarini tartibga soladi.

Bundan tashqari, 2024-yil 16-fevralda qabul qilingan PF-36-sonli Farmonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda tabiiy va moddiy resurslardan foydalanishning samarali iqtisodiy va ekologik boshqaruv tizimlarini joriy qilish zarurligi ta'kidlangan.

Shuningdek, xalqaro standartlar, masalan, ISO 22000, oziq-ovqat xavfsizligini boshqarish tizimining asosiy tamoyillarini belgilaydi. Ushbu standart oziq-ovqat mahsulotlarini etishtirishdan tortib, qadoqlash, saqlash va jo'natish bosqichlarigacha bo'lgan jarayonlarni nazorat qilishni o'z ichiga oladi [7].

Yuqoridagi hujjatlar va standartlar bojxona tizimi faoliyatini tartibga solishda asos bo'lib xizmat qiladi. Bojxona organlari ushbu me'yoriy hujjatlar va xalqaro standartlarga muvofiq ravishda oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini nazorat qiladi, bu esa mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda sanoat korxonalari faoliyatining boshqaruv mexanizmining puxta ishlanganligi va uning iqtisodiyotdagi ulushi va salmog'ini kengayishi natijada esa axolini xavfsiz va sifatli oziq-ovqat bilan ta'minlanishiga olib keladi. Oziq-ovqat sanoati korxonalari o'z faoliyatini va uning rentabelligini baholash uchun tarkibiga nafaqat moddiy faoliyat samaradorligi balki, ichki resurslar salohiyati samaradorligini oluvchi oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatining iqtisodiy faoliyatining integral ko'rsatkichidan foydalanish tavsiya etiladi.

Bu kabi korxonalarningning boshqaruv tizimini strategik maqsadlariga muvofiqligini ta'minlash, uning bozorda mavjudligini saqlab qolish yoki raqobatbardosh pozitsiyalarni mustahkamlash ushbu sanoatni bugungi raqobat kurashida va xavfsiz oziq-ovqat ishlab chiqarishda eng dolzarb masala hisoblanadi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda bojxona tizimi muhim boshqaruv mexanizmi sifatida ishtirok etadi. Bojxona organlari orqali mamlakat hududiga kirib kelayotgan oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi, sifati va xalqaro standartlarga muvofiqligi sinchkovlik bilan nazorat qilinadi. Bu esa ichki bozorda sifatsiz va inson salomatligiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan mahsulotlarning tarqalishining oldini olishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bojxona tizimining samarali boshqaruvi oziq-ovqat sanoati va tashqi savdo jarayonlarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida"gi Qonuni, "Bojxona kodeksi" va Prezident farmonlari oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda bojxona tizimi boshqaruvini takomillashtirishga yo'naltirilgan. Ushbu hujjatlar asosida bojxona nazorati jarayonlarida zamonaviy standartlar va texnologiyalar tatbiq etilmoqda. Natijada, oziq-ovqat sanoati va bojxona tizimi o'rtasidagi hamkorlik mustahkamlanib, oziq-ovqat mahsulotlarining ishlab chiqarishdan tortib, iste'molchigacha bo'lgan barcha bosqichlarida xavfsizlikni ta'minlashga erishilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ziyavitdinova N.M. Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini iqtisodiy samaradorligini oshirish. Diss. i.f.n. Bux oz.ov YeSTI 155 b. B. – 2006.
2. Umarov I.Y. Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish (Andijon viloyati misolida). Diss. i.f.n. AMII 149 b. A. – 2009.
3. Poluxin A.A. Organizatsionno-ekonomicheskii mexanizm modernizatsii selskogo xozyaystva Rossii/ A.A. Poluxin// Agrarnaya Rossiya. – 2012 - №5 s. 23-29.
4. Turgunov, M. (2021). Issues of innovative approach and financing of innovative projects in rapid economic development. Экономика и социум, (7), 151-159.
5. Turgunov, M. (2021). State and prospects of the republic of uzbekistan in international ratings of innovation development. Theoretical & Applied Science, (7), 37-42.
6. Turgunov, M. (2019). Mechanisms of effective management of corporations in the republic of Uzbekistan. In Теория и практика корпоративного менеджмента (pp. 123-124).
7. Muhridin, T. U. (2021). Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini boshqarishning o'ziga xos ayrim xususiyatlari. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 1(2), 65-75.

8. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi prezidenti huzuridagi statistika agentligi rasmiy sayti.

9. www.lex.uz - O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi rasmiy sayti.